



## INGLIZ TILINI O'RGANISHNING SAMARLI 3 SAMARALI USULI HAQIDA BILASIZMI?

**Madaminova Mohinabonu**

*O'ZDJTU 3-ingliz tili fakulteti 2418-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali ingliz tilini o'rganishning foydali usullarini hamda bir necha muvaffaqiyatga erishgan yosh ingliz tili ishtiyoqmandlarining qay tarzda yuqori natijalarga erishilganligi haqida ma'lumotlar olishingiz mumkin.*

Barchamizga ma'lumki begona tilni o'rganish unchalik ham oson emas. Shunday bo'lishiga qaramasdan unga bo'lgan talab va ehtiyojlar kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa bizning O'zbekistonda ham IELTS dan 9 natijani qayd etayotgan insonlarni kuzatyapmiz va borgan sari ularning soni ortib bormoqda. Ora-orada ba'zi bir yosh maktab o'quvchilarining ham B2, C1 darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritayotganini eshitib turibmiz.

Aksariyat kishilar boshqa tilni maktabda ta'lim olgani tufayli o'rganadi. Boshqalar o'z xohishiga binoan til o'rganadi. Yana ba'zi birlar faqatgina o'qishga kirib olish uchunгина o'rganadi. Shu sababdan hamma turli muddat orasida erishadi. Lekin barchalariga berilgan vaqt ham, ularga yaratilayotgan imkon ham bir xil. Biroq nima sababdan ular har xil muddatda erishishadi? Buning asosiy sababi ularning maqsadlarining bir biriga o'xshamasligidadir. Yana bir sabablaridan biri shuki, ingliz tiliga ajratayotgan vaqtlarida.

Maqsad qo'yish haqida so'z ochadigan bo'lsak, asosiy maqsadni hayotimizning bir parchasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Maqsadsiz yashash insonni tubsiz jarlik tomon yetaklaydi. Shu sababdan maqsadni to'g'ri qo'yish va unga tomon to'g'ri harakatlanish zarur. Vaqtni to'g'ri taqsimlash ham manashu maqsadga tomon anchagina yaqinlashtira oladi. Ba'zi bir o'quvchilarda shuni kuzatishimiz mumkinki, ular asosiy e'tiborini qo'shimcha va befoyda bo'lgan narsalarga ko'proq qaratadi. Albatta, ingliz tilini o'rganish jarayonida alohida diqqat va e'tibor muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bir o'quvchilarning maqsadlariga yetishishlarida ya'ni Cefr yoki IELTS sertifikatlarini qo'lga kiritishda uzoq muddat sarflashadi.

Ba'zi bir reklamalarda shuni ko'rishimiz mumkinki, "3 oyda IELTS dan 7" yoki bo'lmasa "6 oyda cefr B2 olishgning sirlari" deb yozilgan e'lonlarga ko'zimiz tushadi. Ha albatta shunday ham bo'lishi mumkindir lekin ko'p teacherlar bilan o'tkazgan so'rovnomamda "deyarli 80% holatda mumkin emas" degan javobni berishdi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Yaypan shahrida joylashgan "WUNDERKIND" o'quv markazining asoschisi, IELTS dan 2 karra 8.0 natija qayd etgan va 3 yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchimiz bilan o'tkazilgan suhbatda shuni aytishdiki: "3 oyda ingliz tilini samarali o'rganish mushkul vazifa. Siz ushbu muddat



orasida beginner va elementary darajani bitirishingiz mumkin”. biz bu orqali shuni anglashimiz mumkinki, bizda jami 9 oy yoki to’liq bir yil vaqt orasida bemalol Cefrdan maksimal B2 daraja egallasa bo’ladi. Agarda sizdagi harakar 10X darajada bo’lsa siz albatta C1 darajaga erishsangiz bo’ladi. lekin qanday qilib? Demak samarali ingliz tilini o’rganish usullarini ko’rib chiqamiz

1. ingliz tili bilan “sevishish”: bu nima degani? Bu ingliz tilini o’rganishning asosiy yo’li deb o’ylayman. Hayotingizni 100% ingliz tiliga bog’lash, ingliz muhitini yaratish va shu muhitda yashash.

2. “My podcast day” – buni nomlanishidan ham sezsak bo’ladi. siz har bir qadamingizda podcastlarni tinglashni kanda qilmang. Chunki eshitish orqali o’rganilgan ingliz tili 80% esda qoladi. Bir o’ylab ko’ring, bolalar hech qanday grammatikani o’rganmasdan gapirib ketadi. 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon, Benny Luisning til o’rganishdagi yangicha yondashuvi barchaga mos keladi deb o’ylayman. U yosh paytlarida italyan tilini o’rganish uchun juda ko’p grammatik kurslarga qatnagan, lekin unda deyarli samara bo’lmagan. Keyin u “Tinglash va qaytarish” usuli bo’yicha til o’rganishni boshlagan. Bir yildan so’ng esa italyan tilida bemalol so’zlay olgan. Huddi shu usul orqali u boshqa yangi tillarni ham o’rgangan. Natijada, 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon darajasiga yetishgan.

3. “I love movies” o’ylashimcha turli kino va multfilmlar barchaga birdek manzur keladi. Hamda bu usul speaking uchun eng oson usullardan biri hisoblanadi. ushbu usul orqali siz nafaqat listening balki pronunciation va speaking ko’nikmalarini ham anchagina oshira olasiz.

Ingliz tilini o’rganishdagi ushbu usullar haqida “Wunderkind” o’quv markazidagi 4 yillik tajribaga ega ustozlardan olingan intervyu davomida aytib o’tishdi. Huddi shunday usullardan foydalangan holda ushbu o’quv markazda bir yil davomida tahsil olgan va yosh bo’lishiga qaramasdan yuqori natijani qayd etgan Muhammadakbarni misol qilib olishimiz mumkin. U juda ham yosh bo’lishiga qaramasdan Cefrdan B2 darajaga erishgan. Albatta 4-sinf o’quvchisi uchun bu juda hayratlanarli voqea.

Ushbu o’quv markazda bunday natijalardan ko’pini kuzatishimiz mumkin. Bir necha yildan beri “Wunderkind” o’quv markazida ham o’quvchi ham o’qituvchi lavozimini egallagan Dilnavozning natijasi esa ko’pchilikni e’tiborini tortishga arziydi. U juda ham tirishqoq va self studyga juda ham qattiq e’tibor begadigan, o’z ishiga mas’uliyat bilan yodoshganligi tufayli qisqa muddat ichida IELTS dan 8.0 natijaga erishgan. U uch marta sertifikat olish uchun ariza topshirgan. Birinchi marta Cefrdan C1 darajani qayd etgan. Ikkinchi nishoni esa IELTS bo’lgan va ushbu xalqaro seftifikatdan birinchi urinishning o’zida 7.0 natijani qayd etgan. Oradan hech qancha muddat o’tmasdan yana IELTS topshirishga qaror qilgan va ushbu urinish ham juda katta muvaffaqiyat bilan kelgan. Bu safar u 8.0 natijani qayd etgan.

Ba’zi bir insonlar uchun bunday natijalar huddi ertakday tuyuladi lekin ular o’z oldilariga maqsad qo’yishni, to’g’ri vaqt taqsimlashni va chet tilini o’rganishda



samarali usullardan foydalanishni, afsuski, o'z o'rnida bajarmaydilar. Ba'zi o'quvchilar hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi bir "chiqindi" videolarni ko'rishga vaqt topishad lekin o'z vaqtida vazifalarni bajarishni esa doimo yodlaridan ko'tarishadi. Nima sababdan chet elda o'z faoliyatini yuritayotgan boy insonlarni kuzatishadi, ularga havas qilishadi-yu o'zlari ular bosgan yo'ldan qadam bosishmaydi?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [Fledu.uz/uz/ingliz-tilini-qiyinchiliksiz-tez-va-oson-organish-usullari/](http://Fledu.uz/uz/ingliz-tilini-qiyinchiliksiz-tez-va-oson-organish-usullari/)
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London.,2001
3. Interviews